

IXTISOSLASHTIRILGAN MATABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARI BILAN OLIB BORILADIGAN TERAPIYA USULLARI

Yo'ldasheva Mahliyo Qahramanovna

Urganch davlat pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 2-bosqich magistranti

yuldawevamahliyo2509@gmail.com

Abstract: This article describes the content of the use of methods of pedagogical therapy for the purpose of correcting defects in the development of schoolchildren of a multidisciplinary specialized preschool educational organization according to their age and specific capabilities, abilities and capabilities. Our research also describes the concept of pedagogical therapy, describes the advantages of play therapy, art therapy methods, a personality-oriented approach to eliminating the defects of children in need of special needs, and describes the peculiarities of using information technology tools.

Key words: therapy, pedagogical therapy, play therapy, art therapy, personality-oriented approach, children in need of special needs, correctional activity, information technology.

Аннотация: В данной статье изложено содержание применения методов педагогической терапии в целях коррекции пороков развития воспитанников многопрофильной специализированной дошкольной образовательной организации по возрастным и специфическим возможностям, способностям и возможностям. Также в наших исследованиях дано определение понятия педагогическая терапия, описаны преимущества игровых методов терапии, арт-терапии, личностно-ориентированного подхода к преодолению недостатков детей с особыми потребностями и особенности использования средств информационных технологий.

Ключевые слова и фразы: терапия, педагогическая терапия, игровая терапия, арт-терапия, личностно-ориентированный подход, дети с особыми потребностями, коррекционная деятельность, информационные технологии.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini yosh va o'ziga xos imkoniyatlariga, qobiliyatlari va imkoniyatlariga ko'ra rivojlanishidagi nuqsonlarni korreksiyalash maqsadida pedagogik terapiya usullaridan foydalanish mazmuni bayon qilingan. Shuningdek, izlanishlarimizda pedagogik terapiya tushunchasiga ta'rif berilgan, o'yin terapiya, art terapiya usullari afzalliklari, alohida ehtiyojga muhtoj bolalarning nuqsonlarini

bartaraf etishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv hamda axborot texnologiya vositalaridan foydalanishning o'ziga xosliklari bayon qilingan.

Kalit so'z va iboralar: terapiya, pedagogik terapiya, o'yin terapiya, art terapiya, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, alohida ehtiyojga muhtoj bolalar, korreksion faoliyat, axborot texnologiyalari.

Kirish. Mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan izchil islohatlar uzluksiz ta'lim tizimining ilk bosqichi maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida o'z ifodasini topmoqda. Xususan, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi" qonunning qabul qilinishi ham sohani rivojlantirishning muhim tamal toshlaridan biri bo'ldi.[2] Yurtimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sog'lom, faol, to'laqonli jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish, o'sishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va jamiyatga moslashtirish uchun qulay muhit yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 391-sonli "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham so'zimizning yaqqol dalilidir.[3]

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarning faoliyati rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'lim olishiga, ularni tarbiyalash va rehabilitatsiya qilishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) R.Elbeltagi, M.Al Beltagi, N.S. Kemal, R. Alhawamdehlar autizimli bolalarda o'qin terapiyasining roli, ahamiyati va cheklovlari bo'yicha tadqiqot o'tkazganlar.[5] C.Schweizer, E.J. Knorth, M.Spreenlar autism spektridagi buzlishlari bo'lgan bolalar bilan art terapiya bo'yicha klinik holatlarni ko'rib chiqib, art terapiyaning ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida fikrlarini bayon qilgan.[6] C.de La Presle, S.Wieder, S.I.Greenspanlar esa o'yin terapiyasiga oid usullarni ishlab chiqqan va tadqiq etgan mutaxassislardir.

-Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Terapiya (yun. therapeia - davolash) — konservativ usullar: dori-darmonlar (farmakoterapiya), antibakterial (kimyoterapiya, antibiotikoterapiya) va gormonal moddalar; zardob va vaksinalar, turli ionlovchi nurlar (nur bilan davolash); iqlim, balchiq, mineral suvlar, massaj, elektr toki va boshqa fizik omillar (sanatoriy va kurortlarda davolash, fizioterapiya, shifobaxsh badantarbiya; parhez va boshqa yo'llar) bilan davolash; ichki kasalliklar tibbiyoti, ichki kasalliklar klinikasi, ichki a'zolar kasalliklari, ularning paydo bo'lish sabablari (etiologiya), rivojlanish mexanizmlari (patogeneza), kasallikni aniqlash (diagnostika), davolash va oldini olish usullarini o'rganuvchi klinik fan.[9]

Shu asosdan kelib chiqib, pedagogik terapiya - bolalarning o'yin va ta'limiy faoliyatlari, xatti-harakat va muloqotidagi qiyinchiliklarining yuzaga kelish sabablarini va ko'rinishlarini bartaraf etish uchun maxsus pedagogik va tarbiyaviy vositalar bilan ta'sir ko'rsatish deb ta'riflasak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlar ta'lim-tarbiya jarayonida alohida ehtiyojli bolalar uchun shifokorlarning tibbiy tavsiya va ko'rsatmalari, defektolog va logapedlarning maxsus ishlariga qo'shimcha tarzda tarbiyachilar tomonidan pedagogik terapiya usullaridan foydalanib korreksion faoliyatlar olib borish pirovardida, bolalarni intensiv sog'lomlashishiga, tengdoshlari qatorida intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishiga, shuningdek uzluksiz ta'lim tizimiga jalb qilinishiga ega bo'lamiz.

KTIMTTlarda ta'lim-tarbiya jarayoni ta'limning korreksion yo'nalganligi, ijtimoiy moslashuvi, ta'limning maxsus metodologiyasidan va toifalangan yondashuvlaridan foydalanish tamoyillari asosida tashkil etilishi belgilab berilgan.[3] Bu esa o'quv-tarbiyaviy jarayonda yangi va samarali pedagogik texnologiya va usullardan foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi.

Pedagogik terapiya usuli yordamida tarbiyachilar guruhidagi bolalarning ta'limiy faoliyatlardagi, rivojlanishidagi, xulq-atvor va atrofdagilar bilan muloqotidagi mavjud qiyinchiliklarini pedagogik metodlar asosida bartaraf qilishga imkon beradi.

KTIMTTlari ta'lim-tarbiya jarayonida kutilgan natija beradigan hamda jahon ta'lim tizimida keng qo'llaniladigan quyidagi pedagogik terapiya usullarini joriy qilishni tavsiya qilamiz.

O'yin terapiyasi. Bu global miqiyosda tan olingan pedagogik qo'llab quvvatlash usullaridan biri bo'lib, o'yin - maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Tarbiyachilar guruhda shunday muhit yaratishi kerakki, bolalar mustaqil o'yinni boshlash va undan zavqlanish hissini namoyon qilishi kerak.

Art terapiyasi. **Art-terapiya** (inglizcha: art — “san'at” + terapiya- davolash) - san'at va ijodkorlikdan foydalanishga asoslangan psixoterapiya va psixologik korreksiyaning yo'nalishlaridan biri. So'zning tor ma'nosida art-terapiya odatda mijozning psixo-emotsional holatiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan vizual art terapiyani anglatadi.[8]

Art-terapiyaning asosiy maqsadi o'zini namoyon qilish va o'zini o'zi bilish qobiliyatini rivojlantirish orqali ruhiy holatni uyg'unlashtirishdir. San'atdan terapevtik maqsadlarda foydalanishning ahamiyati shundaki, u turli xil his-tuyg'ularni: sevgi, nafrat, xafagarchilik, g'azab, qo'rquv, quvonch va boshqalarni ramziy ravishda ifodalash va o'rganish uchun ishlatilishi mumkin. Art-terapiya texnikasi insonning ichki “men”i mazmuni u chizgan rasm yoki haykaltaroshlik qilganda vizual tasvirlarida aks etadi, degan xulosaga asoslanadi bunda psixikaning holati o'zgaradi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. Bu pedagogning e'tiborini bolaning ajralmas shaxsiga, uning nafaqat intellektual qobiliyatlari va fuqarolik mas'uliyat, hissini rivojlantirishga bo'lgan e'tiborini, balki, hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan ruhiy shaxsni rivojlantirishga qaratishdir.[7]

Biz shunday ta'limiy faoliyat yaratishimiz kerakki, har bir bolaga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o'zlarining rivojlanish yo'larini mustaqil tanlash huquqini berishimiz lozim.

Bu yondashuvda pedagog bolaga har tomonlama yaxlit yondashib, uning aqliy, jismoniy, emotsional, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishiga e'tibor qaratadi. Alohida ehtiyojli bolalarning individual rivojlanish ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil strategiyalar qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish. KTIMTT ta'lim-tarbiya jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish bolalarni o'qitish va tarbiyalash, jamiyatga moslashtirish, shuningdek, rivojlanishidagi nuqsonlarni korreksiyalashda eng zarur zamonaviy, qulay usul hisoblanadi. Bunda tarbiyachilar har bir guruhdan kelib chiqib o'quv-metodik materiallarni, multimedia kontentlarini ishlab chiqishlari maqsadga muvofiqdir.

- **Xulosa va takliflar (Conclusion).** Demak, yuqorida sanab o'tilgan usullar bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga, ularning individual ehtiyojlarini qondirib, ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini oshirishga qaratilgan. Pedagogik terapiya usullaridan o'rinli foydalanish KTIMTT tarbiyalanuvchilarini maktabga sifatli tayyorlashda, bolalarni jamiyatga ijtimoiy moslashishida, ularni har tomonla sog'lom rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. "Ta'lim to'g'risidagi qonun". 2020-yil. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-son qonuni. 2019-yil. <https://lex.uz/docs/-4646908>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-4333062>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori.
5. Elbeltagi R, Al Beltagi M, Kemal N.S, Alhawamdeh R. Play therapy in children with autism: Its role, implications, and limitations. World journal of clinical pediatrics. 2023

6. Schweizer C., Knorth E.J., Spreen M. Art therapy with children with autism spectrum disorders: A review of clinical case descriptions on 'what works'. The Arts in Psychotherapy.2014.
7. Shin A.V., Mirziyoeva SH.SH., Grosheva I.V., Mikailova U.T., Suleymanova YU.T., Daukaeva A.G., Vlasova YE.N., Galimova E.F. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish.Metodik qo'llanma. Toshkent.2020.120-B.
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Art-terapiya>.
9. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Terapiya>